

85.314.4473
Q-46.
L. DJUMAYEVA, N. SHARAFIYEVA

XOR SINFI VA KAMER XOR



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

LYUBA DJUMAYEVA, NAYIRA SHARAFIYEVA

**XOR SINFI VA
KAMER XOR**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5150501 - Dirijorlik: akademik xor dirijyorligi ta'lim yo'nalishi uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT-2017

UO‘K: 784.1(075.8)

KBK: 85.314ya73

D 46

**D 46 L.Djumayeva, N.Sharafiyeva. Xor sinfi va kamer xor.
(O‘quv qo‘llanma). -T.: «Barkamol fayz media», 2017,
288 bet.**

ISBN 978-9943-5143-7-9

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy musiqa ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, xor dirijyorligi ixtisosligining “Xor sinfi” va akademik vokal ixtisosligining “Kamer xor” fanlarini o‘rganish uchun tavsiya etiladi. O‘quv qo‘llanmaning maqsadi - talabalar amaliy o‘zlashtirish sharoitlarida xor va ansambl ijrochiligining spetsifik ko‘nikmalarini egallashlari va takomillashtirishlaridir.

O‘quv qo‘llanma shuningdek, yosh xormeysterlar va xor jamoalari rahbarlariga ham uslubiy ko‘mak beradi. Unda berilgan material o‘zining badiiy mazmuni jihatidan qiziqarli va rang-barang bo‘lib, konsert ijrochiligi repertuarini boyitishi hamda dirijorlik sinfining o‘quv repertuarini yanada to‘ldirishi mumkin.

UO‘K: 784.1(075.8)

KBK: 85.314ya73

Mas’ul muharrir:

***A.Mansurov* - O‘zbekiston davlat
konservatoriyasi professori**

Taqrizchilar:

***A.Xakimova* - San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor;**

***Y. Xusniddinova* - Musiqali teatr studiyasi badiiy rahbari va
dirijyori, dotsent.**

ISBN 978-9943-5143-7-9

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

KIRISH

Ushbu kursning asosiy maqsadi talabada chuqur professional bilim olishini ta'minlab berishdan iborat. Turli xil bilimlarni o'rganishga jalb qilish, musiqiy asarlarni barcha tafsilotlarini chuqur o'rganish, musiqiy dunyo qarashni kengaytirish, klassik va zamonaviy O'zbekiston va chet-el kompozitorlarining turli davrga, janrga taaluqli mutaxassislikka doir musiqiy asarlardan durdonalarini tanlab olib, uni chuqur amaliy bilimlar asosida talaba bilan tanihib chiqish.

Xor sinfi darsi jarayonida talabada vokal madaniyati ko'nikmasi, mutaxassislik bilimlari shakllanib boradi. Talaba bilan xor san'ati va xor bilan ishlash amaliyotini olib borish juda muhim. Xor sinfi va kamer xori talabani xor san'atiga yanada yaqinlashtiradi. Xor aristlari va dirijyor tomonidan xor asarlarini tabiiy kuylash, shu bilan birga xor partitura (partiyalarning tembr bo'yog'i, unisonlar, xor rechitativlari, vokal polifonik dinamikalar va hokazo) vositalari orqali singdirilib boriladi.

Amaliy mashg'ulotning asosiy maqsadi – talabaga haqiqiy “musiqiy asbob” bilan ishlash jarayonini tashkil qilib berish. Bu vaqtda har bir talabada qo'shiqchilik, xormeysterlik, xorning rahbari kabi ijodiy faollik rivojlanib boradi. Shu orqali xor sinfi va kamer xori bilimli musiqiy ijrochilarni tarbiyalab beradi. Masalan dirijyor – o'zida tashkilotchilik, rejissorlik, psixologik va boshqa musiqiy bilimlarni bilishi bilan ajralib turadi.

KUYLOVCHI MUSIQACHILARNI TARBIYALASHDA XOR SINFI VA KAMER XORNING AHAMIYATI

Maxsus dirijorlik fanlarining o'quv rejasi turkumida xor sinfi muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim sharoitlaridagi o'quv jarayonida bo'lajak pedagog-xormeysterning xor madaniyatini kasbiy jihatdan shakllantirish kasbiy negizda, o'quv fani sifatidagi xor sinfining kuchi bilan hal etilishi kerak.

Vokal bo'limi o'quv rejasidagi kamer xorga opera tayyorgarligi sinfiga tayyorlov jarayoni sifatida qaraladi, unda nafaqat yakka ariyalar, balki turli xil vokal ansambllari (duetlar, tertsetlar, kvartetlar, sekstetlar va h.k.)ni o'rganish nazarda tutiladi.

Xorda kuylash – bu asos bo'lib, amaliyotda kasbiy faoliyat olib boruvchi talabalarning keyingi ta'limi aynan unga quriladi. Xor sinfi dastlabki qadamlardanoq dirijyor va akademik xonanda uchun zarur bo'lgan iroda va artistizm sifatlarini tarbiyalovchi muhim psixologik ahamiyatga ega. Shu bois, o'quv xori ishlarini yo'lga qo'yish va uslubiyotini tashkillashtirish masalalarini ishlab chiqish ahamiyati va dolzarbligini baholash mushkul.

Xor sinfi – bu ahamiyati dirijorlikdan kam bo'lmagan o'quv fanidir. Xor sinfi va amaliyotda xor bilan ishlash xor dirijyorlari uchun o'zaro uzviy bog'langan faoliyatdir, biroq bunda bir o'quv fanining mustaqil bo'limlari yetarli bo'ladi, akademik xonandalar uchun esa kamer xor – bu nafaqat ansambl bo'lib kuylash ko'nikmalarini ishlab chiqish, balki dirijyorning qo'l harakatiga qarab kuylay olish bo'lib, u nihoyatda muhim lahzadir, sababi xonandalar kelajakda turli xil tarkibli orkestrlar va dirijyorlar bilan sahnaga chiqadilar.

O'quv xori mashg'ulotlarida xor ijrochiligi, xor sozi, xor ansambli, xonish nafasi va uning boshqa vokal-xor texnikasi unsur-